

CHET TILLARIDAGI YANGI SO'ZLARNI SAMARALI
YODDA SAQLASH USULLARI

Ikromjonova Mohidil Jahongir qizi

Namangan davlat universiteti

Ingliz filologiyasi fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ko'pchilik til o'rganuvchilar duch keladigan asosiy muammo bu so'z yodlash vaqtida yo'l qo'yadigan xatolardir. Agar so'z yodlash texnikasi bilinmasa, unda ko'p vaqt va energiya sarflashga to'g'ri keladi. Ushbu maqola chet tillaridagi so'zlarni oson va tushunarli tarzda eslab qolish yo'llarini o'rgatadi.

Kalit so'zlar: chet tili, mnemonika, assotsiatsiya, tasavvur, lug'at va xotira usuli.

Аннотация: Основная проблема, с которой сталкиваются многие изучающие язык, это ошибки, которые они допускают при запоминании слов. Если вы не владеете техникой запоминания слов, то вам придется потратить много времени и сил. Эта статья учит, как легко и понятно запоминать слова на иностранном языке.

Ключевые слова: иностранный язык, мнемоника, ассоциации, воображение, словарный запас и метод интеллект-карт.

Abstract: A major problem faced by many language learners is the mistakes they make when memorizing words. If you do not know how to memorize words, then you will have to spend a lot of time and effort. This article will teach you how to remember words in a foreign language in an easy and understandable way.

Key words: foreign language, mnemonics, associations, imagination, vocabulary and mindmap method.

KIRISH

Bugungi kunda chet tillarini o'rganish istagida bo'lgan yangi til o'rganuvchilar soni kundan-kunga ortib bormoqda. Har bir o'rganuvchining til o'rganishdan ko'zlagan asosiy maqsadlari: xorijiy davlatda o'qish, ishlash, sayohat qilish yoki shunga o'xshash vaziyatlar. Chet tillarini bilish insonning dunyoqarashini kengaytiradi, fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, qolaversa, o'sha davlat adabiyoti, tarixi, an'analari, urf-odatlarini bilan yaqindan tanishish imkonini beradi.

“Learning another language is not only learning different words for the same things, but learning another way to think about things” Flora Lewis. “Boshqa tilni o'rganish, faqatgina boshqa so'zlarni o'rganish emas, balki narsalar haqida boshqacha fikrlashni o'rganish hamdir” Flora Lyuis. Har qanday xorijiy tilni o'rganishdagi eng muhim masalalardan biri bu so'z yodlashdir. Inson so'z boyligi tilni qay darajada bilishi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, kelajakda boshqa sohalardagi muvaffaqiyatga yo'l ochuvchi kalit hisoblanadi. Ma'lumotlarga

ko'ra, qaysi tilda bo'lishidan qat'i nazar, kundalik muloqot uchun 1200-2000 ta so'zni bilish talab qilinadi. Demek, ingliz tilida ham erkin muloqot qilish uchun shuncha so'zni bilish kerak bo'ladi. Til o'rganish davrida, yangi usullardan foydalanib so'z yodlash va uni uzoq vaqt eslab qolish o'rganuvchiga ancha samarali qo'l keladi.

TAJRIBA VA NATIJALAR

1-usul. **Tasavvur** – Toni Buzanning tili bilan aytganda, miyamizning tili hisoblanadi. Miyamiz shu tilda fikrlaydi va ishlaydi. Agarda sizga “sleep-uxlamoq” so'zi aytilsa, do'stingizni yoningizda uxlayotganini tasavvur qiling va unga qarata, “My friend is sleeping” deb aytib ko'ring. Yoki “apple-olma” so'zi sizga bog'ingizda pishgan qip-qizil olmani yodga solishi tabiiy. Ko'zlarni yumgan holda, his qilish va tasavvur metodidan foydalanib bunday so'zlarni xotirada gavdalantirish odatda yaxshi natija beradi.

2-usul. **Kartalar usuli**. Bu metod barcha xorijiy so'zlarni o'rganishning odatiy usulidir. Old tomoniga so'zning o'zini va teskarisiga so'zning tarjimasini yoziladi. Bu tarzda yodlash orqali so'zlarni uzoq vaqt davomida yodda saqlash mumkin.

3-usul. **Mnemonika usuli**. Mnemonika – o'xshashlik va bog'liqlik asosida xotira hajmini kengaytirish va kerakli ma'lumotlarni eslab qolish uchun ishlab chiqilgan maxsus uslublar to'plamidir. Bunda yangi, noma'lum bo'lgan tushunchalar inson ongida avvaldan ma'lum bo'lgan ma'lumotlar bilan birikadi va natijada yangi ma'lumatni eslab qolish osonlashadi. Keling, bir misolni ko'rib chiqamiz: yilning qaysi oylari 31 kun va qaysilari 30 kun ekanligi har doim ham insonning yodida turavermaydi. Bu dalilni biz quyidagi inglizcha she'r yordamida osonlik bilan o'rganib olishimiz mumkin:

**Thirty days have September,
April, June and November,
All the rest have thirty-one;
February has twenty-eight alone.**

4-usul. **Assotsiatsiya usuli**. Assotsiatsiya- so'zlar ma'nosini bir-biriga o'zaro moslashtirish orqali yodlash usulidir. Bunda asosan so'zlarni mantiqan bog'lash muhim ahamiyatga ega. Misol uchun, a dish -idish; a duck-o'rdak; candy-qand; to chop-chopmoq.

5-usul. **So'zlar oldiga rasm chizish usuli**. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, agar so'zlarning oldiga rasm chizib yodlansa, eslab qolish ehtimoli 80% ga oshar ekan. Ayniqsa, lug'at daftardagi murakkab va yaqqol tasavvurga moyil yangi yodlanadigan so'zlarga rasm chizish kerak. Eng muhimi chiroyli chizish emas, balki yangi so'zlarga aloqador holda chizishdir.

6-usul. **Mindmap-takrorlash usuli**. Har bir yodlangan so'z kunora takrorlab turilishi kerak. Uzoq vaqt davomida takrorlamaslik 90% so'zni yoddan chiqarilishiga sabab bo'ladi. Unutmangki, “Repetition is the mother of learning” (proverb).

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, zamonaviy chet tillarini o'rganish, insonni barkamol va yetuk shaxs sifatida kamol topishiga yordam beradi. So'z yodlash jarayonida o'rganuvchi o'zi uchun qulay bo'lgan usullardan foydalanishi kerak. Agar samarasiz, zerikarli metodlardan foydalasa, bu ma'lumotlar keyinchalik xotiradan tez fursatda o'chib ketishiga sabab bo'lishi mumkin. Maqolada tavsiya etilgan usullarni qo'llab so'z yodlash esa so'zni uzoq vaqt va qulay uslubda xotirada muhrlanishiga yordam beradi.

REFERENCES:

1. Shohrux Mirzo Rahmonov va Iskandar Sattibayev "So'z yodlash sirlari". Toshkent 2015, "Istiqlol nuri" nashriyoti
2. Aziza, O., & Sevara, S. (2003). INGLIZ TILI ME'YORIY TALAFFUZ STANDARTLARINI O'QITISH ME'ZONLARI. Involta Scientific Journal, 2(1), 138-141
3. Harmer J. The practice of English language Teaching. -London., 2001.
4. <https://global-edu.uz/articles/ingliz-tilidagi-sozlarni-oston-eslab-qolishning-eng-zor-yollari/>
5. <https://prep.uz/news/maslahat/soz-yodlashning-siz-bilmagan-sirlari>